

“SAYOHATNOMA”LARNING QIYOSIY TAHLILI

Ergashev Avazbek Laziz o‘g‘li¹¹ ToshDO‘TAU O‘TAT 2-kurs

ergashevavazbek894@gmail.com +998907810249

Abdullayeva Marg‘uba Dusmiratovna¹¹ Ilmiy rahbar: F.f.d., prof.MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:01.07.2025

Revised: 02.07.2025

Accepted:03.07.2025

KALIT SO‘ZLAR:

Muqimiy, Zavqiy,
Furqat,
“Sayohatnoma”, tahlil,
farqli, o‘ziga xoslik.

Ushbu maqolada Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Ubaydulloh Zavqiy hamda Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat “Sayohatnoma”lari, ularning yozilish uslubi va qalamga olingan voqealar, ulardagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlilga tortiladi.

KIRISH. XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti serqirra ijod davri sifatida ajralib turadi. Aynan shu davrda qalam tebratgan shoirlar an‘anaviy janrlarda barakali ijod qilibgina qolmay, yangi adabiy turlarning yaratilishi, g‘arb modern adabiyoti shakllarini o‘zbek adabiyotiga olib kirilishiga sababchi bo‘ldi. Xususan, realizm, publitsistika, dramaturgiya kabi yangicha yo‘nalishlarda birmuncha asarlar yaratildi. Bu, o‘z navbatida, o‘sha davr ijodkorlarini izlanishga, yangilikka intilishga chorladi.

Yuqorida nomi zikr qilingan adabiy tur va janrlar qatorida turuvchi, bizga XIX, XX asr hayotidan hikoya qiluvchi janr bu “Sayohatnoma”dir. “Sayohatnoma” – sayohat taassurotlari va tafsilotlari tasviriga bag‘ishlangan asar¹¹. Ibn Batuta, ibn Xurdobek, al-

¹¹ Safarova H. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “Sayohatnoma” janrida yaratilgan asarlar xususida. “The theory of recent scientific research in the field of pedagogy”. 219-b.

Ya'qubiy, Nosir Xisrav kabi o'rta asr geograflari yaratgan asarlar ilk "Sayohatnoma" namunalaridan sanaladi. O'zbek mumtoz adabiyotida sayohatnoma keng tarqalgan liro-epik janrlardan biri bo'lib, adabiyot tarixida ular 2 ga ajratiladi:

1. She'riy sayohatnomalar;
2. Nasriy sayohatnomalar.

She'riy sayohatnomalar tizimga solinishi bilan birgalikda tasvir ixchamligi jihatidan ham nasriy sayohatnomalardan farq qiladi. Aynan shu sababdan ham o'zbek adabiyotida she'riy sayohatnomalar xarakterlidir. Jumladan, Muqimiy, Zavqiy, Muhyi kabi shoirlar o'z "Sayohatnoma"larini she'riy uslubda bitgan.

Nasriy sayohatnomalar esa joy va voqea-hodisalar tafsiloti kengligi bilan ajralib turadi. Masalan, Furqatning "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti – o'zi yozg'oni" asari (adabiyotshunoslikda shartli ravishda "Furqatnoma", ba'zan "Sarguzashtnoma" nomi bilan yuritiladi¹²) nasriy usulda yozilgan.

Muqimiy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida "Sayohatnoma" janrini boshlab bergan bo'lsa¹³, Zavqiy, Furqat, Tajalliy kabi shoirlar bu an'anani munosib davom ettirgan. Zavqiyning "Shohimardon xotirasi", Furqatning "Sayohatnoma", "Sarguzashtnoma" kabi asarlari ushbu janrning go'zal namunalaridan sanaladi.

Zavqiyning "Obid mingboshi haqida hajv" asari haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, adabiyotshunos Ahmadjon Muhammadiyev uning "Sayohatnoma" nomi bilan tanilganligi¹⁴ni aytadi. Biroq Abdulatif Turdaliyev tomonidan nashrga tayyorlangan "Zavqiy: she'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar" kitobida u "Sayohatnoma" emas, balki "Hajviyalar" turkumiga kiritilgan¹⁴. Asar murabba shaklida yozilgan bo'lib, 14 band 52 misradan iborat. "Suv janjali" she'ridagi kabi bunda ham "ekan" so'zi radif qilib olingan. (Muqimiy "Sayohatnoma"larida ham ushbu so'z radif sifatida qo'llanilgan). Asar Muqimiyning "Qo'qondan Shohimardonga" asari kabi zamona shikoyati bilan boshlanadi:

Hayhot, eshitsangiz ulus,

Obid degan qaynar bo'lus,

Mansab esiz, hayfi julus,

Badlafz-u badguftor ekan. (Zavqiy "Obid mingboshi haqida hajv") (153-b)

¹² Yo'ldoshev Q. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat. 9-sinf adabiyot darsligi. "O'zbekiston" NMIU, - Toshkent: 2019. 113-b

¹³ Muhammadiyev A. Muqimiy va Muhyi "Sayohatnoma"larida an'ana va o'ziga xoslik. "Oltin bitiglar" jurnali. 2023-yil 4-son, 83-b.

¹⁴ Turdaliyev A. Zavqiy: she'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. Cho'lpon nomidagi NMIU, - Toshkent: 2019. 153-bet. (Zavqiy qalamiga mansub keyingi misollar shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi).

*Faryodkim, garduni dun,**Aylar yurak-bag‘rimni xun,**Ko‘rdiki, bir ahli funun –**Charx anga kajraftor ekan.¹⁵ (Muqimiy “Qo‘qondan Shohimardonga”)*

Asarda hikoya qilinishicha, Zavqiyning dashtda bir yeri bo‘lib, atrofi devor bilan o‘ralmagan. Bir boyning chorvasi u yerga kirib, ekilgan ekinlarni payhon qilib, daraxtlarni g‘ajib tashlayotganligi, shoirning boy qo‘y-echkilaridan bezor bo‘lganligi aytib o‘tilgan. Bundan bezgan shoir mingboshiga arz qiladi, biroq boy tomonidan “og‘zi moylangan” amaldor Zavqiyning o‘zini mahkamadan haydab soladi. Shundan so‘ng ushbu avtobiografik hajviy sayohatnoma yaratiladi¹⁶.

Shoirning “Shohimardon sayohati” she‘ri ham ushbu janrga kiruvchi asarlardan biri bo‘lib, rajazi murabbai solim vaznida, murabba shaklida yozilgan, 9 band 36 misrani tashkil qiladi. She‘rga “ekan” so‘zi radif qilib tanlangan. She‘rdagi tasvirlar bir qarashda Muqimiyning “Sayohatnoma”larini eslatadi, biroq ba‘zi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Muqimiy “Sayohatnoma”larida, jumladan, “Qo‘qondan Shohimardonga” qismida biror o‘rinda Shohimardon tasviri uchramaydi, faqat Shohimardongacha yo‘lida kirib o‘tgan qishloqlar tasviri, u yerda duch kelgan voqealar qalamga olinadi. Zavqiy “Sayohatnoma”sida esa bundan farqli o‘laroq yo‘ldagi boshqa joylar emas, aynan Shohimardon, uning tabiati, qadamjolari, amaldor va ulamolari, ularning xislatlari tasvirlangan.

Muqimiy va Zavqiy “Sayohatnoma”larida bir qancha o‘xshash jihatlar ham mavjud. Xususan, har ikki she‘rda ham mahalliy amaldor va zolim mullalarning zulmidan ezilayotgan oddiy aholi dardi safar taassurotlari bilan birga, hamohang tarzda qalamga olingan:

*Mingboshisi so‘finamo,**Tasbeh-u bo‘ynida rido,**Cho‘qub qochar zog‘i alo,**Bir dog‘uli ayyor ekan. (Muqimiy “Qo‘qondan Shohimardonga”) (429-b.)*

Badshakl-u badho‘, badnamo,

¹⁵ Karimov G. Muqimiy. Asarlar. – Toshkent: 1974. 427-b. (Muqimiy ijodiga mansub keyingi misollar shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatiladi.)

¹⁶ Fayzullayeva O. O‘zbek mumtoz va milliy adabiyoti fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Guliston: 2018. 28-b.

Botinda kiyna, fisq, riyo,

Kim uchrasa shilqim gado,

Sulloh, ozori jon ekan. (Zavqiy "Shohimardon xotirasi") (179-b.)

Shu bilan birgalikda, sayohat muddatlari ham o'xshash, ya'ni ikki shoir ham bir joyda uzoq turib qolmagan:

Armonki, ko 'prak yurmadim,

Bir-ikki hafta turmadim,

"Tikka Rabot"ni ko 'rmadim,

Purfayz buzrukvor ekan. (Muqimiy "Qo'qondan Isfaraga") (432-b)

Zavqiy kelib ko 'p turmadi,

Tursa rafiqlar qo 'ymadi,

Oyo nasibi bo 'lmadi,

Ehromi Uchqo 'rg'on ekan. (Zavqiy "Shohimardon xotirasi") (180-b.)

"Sayohatnoma" yozish an'anasini munosib davom ettirgan shoirlardan biri, shubhasiz, Furqatdir. Uning "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti – o'zi yozg'oni" asari sayohatnoma janrining namunasidir. Asar bir qarashda "Boburnoma"ni eslatadi, chunki Furqat ham Bobur kabi nasriy usulda o'z yo'lida uchragan joylar tasviri hamda hamsuhbat bo'lgan insonlari haqida asarida qayd qilib boradi. Furqat "Sarguzashtnoma"si nasriy usulda yozilganligi bilan Muqimiy va Zavqiy asarlaridan farq qilsa-da, mavzu va mazmun jihatidan mutanosiblikni tashkil qiladi. Ammo asardagi voqealar yuz bergan o'rni va hudud jihatidan biroz farqlanadi, ya'ni Muqimiy va Zavqiy "Sayohatnoma"lari, asosan, vodiy qishloqlariga qilingan safarlardan iborat bo'lgan bo'lsa, Furqat "Sayohatnoma"larida Xo'jand, Toshkent kabi boshqa shaharlar ham qo'shiladi. Asar lirik emas, aksincha, nasrda yozilgan bo'lib, Marg'ilonda tog'asi huzurida do'kondorlik ishlariga qarashib, Qo'qonga qaytgani haqidagi voqealardan boshlanadi. Jumladan, Furqat asarida Qo'qondan Toshkentga safarga chiqqanligi, yo'l davomida Xo'jandlik Mirzo Nasrullo ismli bir savdogar do'stining uyiga mehmonga tushganligi, shahar aylanganligini yoza turib, u yerning tabiati va buning o'ziga ta'siri haqida shunday deydi:

“*Va ob-havosi ham nomarg‘ub ko‘rundi, chunkim tez-tez havo mukaddar bo‘lub, ulug‘ sellar kelib, mahobat bo‘lur ekan. Mijozim inqilob topub, nabzim taharrukidin buqalamun tashxislar padidor o‘la boshladi...*”¹⁷ (Furqat, *Xo‘jand shahri xotiralaridan*)

Muqimiy ham deyarli barcha sayohatlarida qalamga olgan manziling ob-havosi, o‘zining ruhiy kayfiyatini she‘riga solgan:

Ma‘yus chiqdim Isfara,

Dil hasta, majruh-u yara,

Issiqqa kuygan qop-qora

Olti jihat ko‘hsor ekan. (Muqimiy, “Qo‘qondan Isfaraga”dan) (432-b.)

Oltiariq qursin o‘shal,

Sellarda qoldim bir mahal,

Bo‘ldim ivib, yomg‘urda shal,

To‘n shilta, ho‘l ozor ekan. (Muqimiy, “Qo‘qondan Shohimardonga”dan) (429-b.)

Furqat ham asarida ba‘zi insonlarni, ularning nomaqbul ishlarini tanqid ostiga olgan. Asarni o‘qir ekanmiz, Xo‘jand safari davomida turli odamlar bilan suhbatlashganini, ularning dardini tinglaganining guvohi bo‘lamiz: “*Ul xalqning arosida rusum-qavoid tafahhusida aksari nopisand va nomarg‘ub ko‘rundi. G‘olibo, mardumlari behunar va beksab ermishlar va ahli davlat kishilar kam va bechoralari ko‘b ma‘lum bo‘ldi*” (67-b.) Yoxud o‘sha yerlik hakimlar haqida fikr bildirar ekan, ularning naqadar savodsiz ekanligini aytadi. Agarda ularning yoniga bemor borgudek bo‘lsa, kasalini aniqlash uchun darhol qon olinar ekan. Furqatning o‘zi ham ko‘zi xiralashgan, bemajol bir bemordan tabib qon olganining guvohi bo‘lganini yozar ekan, bu behuda va bemor uchun xavfli bo‘lgan muolajadan ko‘p kishining sihatiga nuqson yetishini o‘ylaydi, o‘zi ham hasta bo‘lishiga qaramay, davolanmasdan Toshkentga jo‘naydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Sayohatnoma”larda mualliflar o‘z ko‘rgan-kechirganlarini tasvirlash barobarida, o‘zbek xalqining urf-odatlarini, iqtisodiy va madaniy holati haqida chuqur mulohazalar bildirgan. Ularning asarlarida jamiyatdagi kamchiliklarga tanqidiy yondashish umumiylikni tashkil etsa, Muqimiyning hajviy ohangi, Zavqiyning hayotiy realizmi va Furqatning falsafiy mulohazalari ular orasidagi farqlarni belgilaydi. Ushbu uch shoirning yuqorida nomi zikr etilgan asarlari o‘z davri uchun noyob adabiy

¹⁷ Rasul X. Furqat. Saylanma. “Ma‘naviyat” NMIU. – Toshkent: 2009, 68-b. (Furqatga tegishli boshqa misollar shu manbadan olinib, sahifada beti ko‘rsatildi.)

taljriba bo'lib, yangi shakl va mazmun yo'lidagi izlanishlarning ilk namunalari sifatida o'quvchiga XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining turli jabhalari haqida ro'y-rost ma'lumot beruvchi qimmatli manba sifatida hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayeva O. O'zbek mumtoz va milliy adabiyoti fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Guliston: 2018. 28-b.
2. Karimov G'. Muqimiy. Asarlar. – Toshkent: 1974. 427-b.
3. Muhammadiyev A. Muqimiy va Muhyi "Sayohatnoma"larida an'ana va o'ziga xoslik. "Oltin bitiglar" jurnali. 2023-yil, 4-son, 83-b.
4. Rasul X. Furqat. Saylanma. "Ma'naviyat" NMIU. – Toshkent: 2009, 68-b.
5. Safarova H. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida "Sayohatnoma" janrida yaratilgan asarlar xususida. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy. 219-b.
6. Turdaliyev A. Zavqiy: she'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019, 153-b.
7. Yo'ldoshev Q. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat. 9-sinf adabiyot darsligi. "O'zbekiston" NMIU. – Toshkent: 2019. 113-bet.